



Imom Buxoriy Asarlari Asosida Boshlang`Ich Sinf O`Quvchilarini Milliy Mafkuraviy Ruhda Tarbiyalash

Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna

Andijon Davlat Universiteti

“Umumiyy pedagogika” kafedrasasi o`qituvchisi

Odiljonova Zinniraxon

ADU Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti

Pedagogika va psixologiya yo`nalishi

4-bosqich talabasi

ABSTRACT

Maqolada Imom Buxoriy ma`naviy merosining jahonshumul ahamiyati, hamda alloma asarlarining yoshlar ta`lim-tarbiyasida ijobjiy fazilatlarini shakllantirishdagi axloqiy tarbiyaviy ahamiyatga egaligi o`rganilgan.

ARTICLE INFO

Received: 11th December 2022

Revised: 11th January 2023

Accepted: 20th February 2023

KEY WORDS: Hadis, mutafakkir, ta`lim-tarbiya, inson, ma`naviy olam, hadis ilmi, islam, axloqiy tarbiya, axloqan barkamol, yaxshilik, ezzulik, fazilat, meros

Kirish. Davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot startegiyasi” to’g’risidagi farmonida[5] belgilangan (7 ta ustivor yo’nalish), “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish” yo’nalishida, “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o’rganish va targ’ib etish” maqsadga muvofiqligi, dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari va ilmiy tadqiqot markazlari, universitetlar bilan hamkorlikda, buyuk ajdodlarimizning boy – ilmiy – ma’naviy merosini keng o’rganish hamda targ’ib qilishga katta e’tibor qaratilayotganligi diqqatga sazovordir.

Asosiy qism. *Imom al-Buxoriy hadis sultonı 810 yilda Buxoroda tavallud topgan. 10 yoshida boshlab hadislarni yod olib va butun umrini hadis olamiga bag’ishlagan. Mutafakkir hadis ilmi va uning turli tarmoqlarini to’liq o’rganish, hadislarni to’plash maqsadida Hijoz, Misr, Iroq, Xuroson va boshqa shaharlarda yashab inson ma’naviy olami uchun qadrli bo’lgan hadislarni to’plagan.*

Imom al- Buxoriy yozgan asarlari sarasiga “Al-Jomi’ as-sahih” (“Sahihi Buxoriy”), “Al-adab ul-mufrad” (“Adab durdonalari”), “at-Tarix va al-kabir” (Katta tarix), “Kitob asmo’ as-sahoba” (“Sahobalar ismlari kitobi”), “at –Tarix al-avsat” (O’rtacha tarix), “at-Tarix as - sag’ir” (Kichik tarix), “Kitob ar-riqoq” (Nafosat haqida kitob), “Bir al-volidayn” (Ota – ona hurmati), “al- Adab al- mufrad” (Axloq – odob haqidagi hadislar to’plami) va boshqalarni kiritish mumkin. Imom al – Buxoriyning yigirmadan ortiq asarlari hadis ilmining turli sohalari bo’yicha yozilgan bo’lib, ularning har biri o’ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Natija va muhokama. Islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyin turadigan ikkinchi ijtimoiy – siyosiy, axloqiy, huquqiy hujjat hisoblangan “al-Jomiy as-sahih” asar, dunyoda “Sahih al-Buxoriy” nomi bilan mashhurdir. “AlBuxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat. [1,28]

Bu shoh asar ikki dunyo saodatiga eltuvchi yo'l sifatida qanchadan – qancha nusxalarda dunyoning turli tillariga tarjima qilinmoqda.

Alloma asarlarida axloqiy tarbiyaga oid ta'limotlarining markazida komillik, insonlarning o'zaro mehribon bo'lishlari, bir – birlariga har doim yordam berish, ahil – totuv yashash kerakligi, halol mehnat qilish, yaxshilik, e兹gulik g'oyalari yotadi. Imom Buxoriy qalbi pok, iymonli, atrofdagilariga umuman zarar yetkazmaydigan, odamlarga faqat yaxshilik qiladigan va yordam beradigan insonlarnigina axloqan barkamol deb hisoblaydi.

Imom Buxoriy hadislaridan: “Insonlarga yomonlik qilishdan uzoq tur. Zero bu o'zingga sadaqadir”. Ya'ni, boshqalarga foydasi tegadigan odam eng yaxshi insondir.

Islom insonning manman, xudbin bo'lib, faqat o'z manfaatini o'yab, ish tutishini ma'qul ko'rmaydi. Alloh boshqalar uchun fidoyi, samimiylar va hojatbaror bandalarini qadrlaydi. (Buxoriy, 2518) [2,6]

Demak, hadisning mohiyati shunga qaratilganki, odamlar bir – biriga faqatgina moddiy narsalar bilan yordam berish emas, balki moddiy va ma'naviy imkoniyatiga qarab muhtojlarga yordam berishi, imkoniyati bo'limganida esa birovlarga umuman yomonlik qilmaslik bilan ham birovlarga yaxshilik qilishi e'tirof etilgan. Albatta, alloma yaxshi amallarni har kishi o'zidan, oilasidan va qarindosh – urug'laridan, so'ngra esa qo'ni – qo'shnisidan boshlashi lozimligini uqtirib o'tadi.

Abu Xurayra(rz) rivoyat qiladi: “ Biro dam Rasululloh (s.a.v) ning huzurlariga kelib : (Yo Rasululloh mening yaxshi muomala qilishimga kim haqliroq ? “ deb so'radi. Janob Rasululloh : “Onang” dedilar. U: “ Yana kim?” deb so'radi. Janob Rasululloh : “ Onang ” deb javob berdilar. U: “ Yana kim?” deb so'radi. Janob Rasululloh : “ Onang ” deb javob berdilar. U “Yana kim? ” deb so'radi. Janob Rasululloh (bu safar) “ Otang ” deb javob berdilar.

Izox: Kishi uchun bu dunyoda uning qiladigan yaxshiklariga eng avval onasi xaqdor ekanligi aytilmoqda. Yaxshilik va e兹gulik inson axloqining asosiy fazilatlaridan biridir. Al-Buxoriy barcha insonlar bir - birlari bilan aka-uka, opa –singil va birodar ekanini alohida qayd etadi. Ular bir-birlari bilan o'zaro hamjihatlikda, bir – birlarini qo'llab quvvatlab yashashlari lozimligi e'tirof etiladi.

Alloma “Al-Adab al-mufrad” asarida ham inson axloqi odobi, ma'naviy kamolotiga doir hadislarni turli mavzular bo'yicha tasnif qilgan va izohlar bergen.

Asarning ilk boblarida ota – ona oldida farzandlik burchlari, ota – onani rozi qilish, ularning haqini ado qilish, ota – ona amriga itoat qilish, ularga yaxshilik qilish, ularni dilini og'ritmaslik, qarindosh – urug'larga mehr – shavqat, rahmdillik, yosh bolalarga, ayollarga mehr – muruvvatli bo'lish, bolalar va kattalar arazlashib, urishib qolganda yarashtirib qo'yish, imorat qurishda va boshqa ishlarda kamtarlik bilan ish tutish, takabburlik va so'kinishning yomonligi, jabr – zulmning yomonligi, rostgo'ylik va yolg'onlik, halol va harom, savob va gunoh ishlar kabi milliy mafkuramizga hos inson ma'naviy hayotiga doir muhim muammolar to'g'risida fikr yuritilgan.

Jumladan, “Kimki rizqi mo'l, umri uzoq bo'lishini istasa, qarindoshlarini ziyorat qilsin (ular bilan munosabatni davom ettirsin).” (Buxoriy, 2986). Hadisi sharifda “silai rahm”, ya'ni qarindoshlar bilan rishtalarni mustahkamlash xususida tavsiya bor. “Silai rahm” qarindoshlik rishtalari va mas'uliyatining unitilmasligidir. Qarindoshlar ichida yordam va e'tiborga muhojirlar bo'lsa, ulardan yordamni ayamaslik kerak. Qarindoshlik rishtasini uzish katta gunoh sanaladi. Qarindoshlar bilan yaxshi munosabatda bo'lish rizqning ko'payishi, hayotning osoyishta, quvonch bilan o'tishi va umrning uzoq bo'lishiga sababdir.[4,124] Al – Buxoriy merosida qo'shnichilik munosabatlari alohida to'xtalib o'tiladi. Yaxni qo'shnichilik munosabatlari ulug'lanadi va uni rivojlantirish yoqlab chiqiladi.

Hadisdan: Hazrati Oisha onamiz hikoya qiladilar: “Alloh Rasulidan bir kuni: “Yo Rasululloh! Mening ikki qo'shnim bor. Bular dan qaysisiga hadya beray?” deb so'radi. Allohning Rasuli: “Qaysi birining eshigi yaqinroq bo'lsa, o'shangi”, deb javob berdilar”” (Buxoriy, “Adab”, 78). [4,66]

Bu hadisda qo'shning haqqi bilan bog'liq qimmatli tavsiya berilgan. Insonning bir emas, bir nechta qo'shnisi bo'lishi aniq. Bularning barchasiga birdek e'tibor berib, sovg'a ularish juda qiyin. Shunday vaziyatda qanday

yo'l tutish kerakligi hadisda ko'rsatilgan. Eng yaqin qo'shniga yaxshilik qilish oqilonan tadbirdir. Demak, allomaning inson bu dunyodagi har bir hatti – harakati, o'zida namoyon etgan axloqiy jihatlari uchun oxir – oqibat mukofotlanishi yoki aksincha jazolanishi mumkinligini e'tirof etishi, insonlar o'rtasidagi muruvvat, yaxshilik, mehr – oqibat, ezgulik ravnaqi yo'lidi da'vatdir.

Umuman olganda, Imom Buxoriy asarlarida: halollik, poklik, ota – onaga hurmat, yaxshilik, birodarlik, do'stlik, vafodorlik, mehrbonlik, saxovatpeshalik, sabr – qanoat, ezgulik, adolatlilik, hamjihatlik, g'amxo'rlik, kechirimlilik, beozorlik, ilmlilik, yoshlarning axloqiy tarbiyasini shakllantiradigan fazilatlarni kiritadi.

Hasad, manmanlik, behayolik, tajavvuzkorlik, buzg'unchilik, jaholat, g'iybat, nohaqlik, adolatsizlik, xiyonat, tuhmat, adovat, zulm, qotillik, ota – onaga itoatsizlik, iymonsizlik kabi salbiy tuban illatlar qattiq qoralanadi. Bugungi kunda xalqimiz o'z oldiga qo'ygan buyuk maqsadlarga, ezgu niyatlargacha erishish, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlar rejalarining samarasi, avvalambor yuqori malakali, yuksak tafakkurga ega bo'lgan mutaxassislarini tayyorlash, tarbiyalash taraqqiyotimizning asosiy sharti hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Bunda asosan, Imom Buxoriy ta'limotlarni o'rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida Yangi O'zbekiston yoshlarining maktab o'quvchilarini ma'naviy barkamol jihatdan kamolotga erishishlari, egallagan bilim va malakalarni o'z faoliyatlarida, jamiyatimiz taraqqiyoti yo'lida to'la namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladigan darajada tarbiyalash muhim vazifalardandir. Albatta, bu ezgu vazifani ijobjiy hal etishda xalqimiz ma'naviy merosining ahamiyati kattadir. Shu sababli ma'naviy merosimizni tiklash, o'rganish va hayotga tatbiq etish, jahon andozalari darajasiga ko'tarish va o'quvchilarini ajdodlarimiz asarları bilan tanishtirish, maktablarda ham shu asarlar asosida tarbiyaviy soatlar o'tishga alohida e'tibor qaratish darkordir.

Xulosa qilganda, Imom al-Buxoriy hadislarining jahonshumul ahamiyati insoniylik, insonparvarlik Vatanga muhabbat haqida tarbiya berishi bilan yosh avlodda ezgulik va go'zallik tuyg'ularini uyg'otadi va rivojlantiradi. Ilm-fanda "Hadis ilmining amiri" deb bir ovozdan tan olingen Imom Ismoil al Buxoriy hadislarini mehroqibat, sahiylik, ota-onasi va kattalarga omad, yetim-yesirlarga muruvvat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollik, turli xalqlarning o'zaro do'st, tinch-totuv yashashlari kabi insoniy fazilatlari barkamol avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asar hisoblanadi. Yoshlarni shu asarlar asosida tarbiyalash ularning keljakda yetuk inson bo'lib shakllanishiga zamin bo'la oladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Buyuk siymolar, allomalar. 1 – kitob, - Toshkent, Fan, 1995
2. 1001 mavzuda 1001 hadis (Sharh va ilovalari bilan) – O'zbekiston, NMIU, 2020 yil
3. Oltin Silsila: 1 –juz.Sahihul Buxoriy – Toshkent, "Hilol - nashr", 2016
4. 4.1001 hadis (Sharh va ilovalari bilan) – O'zbekiston, NMIU, 2020
5. Imom Buxoriydan 40 hadis – Toshkent " Movaraunnahr"2018
6. Boshlang'ch sinflarda ta'lim tarbiya –Namangan 1992
7. "Boshlang'ich ta'lim "jurnali 2007-yil 2-son
8. <https://lex.uz/uz/docs/5841063/> //O'z.Res.Prezidentining Farmoni "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot startegiyasi" to'g'risida.PF – 60 son, 28.01.2022 yil